



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	



KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI

Otabek Oltiboyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari resurs bazasini kapital bozori instrumentlari — korporativ obligatsiyalar, aksiyadorlik kapitali va sekyuritizatsiya mexanizmlari orqali kengaytirishning nazariy asoslari, O'zbekiston bank tizimidagi amaldagi holati hamda rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kapital bozori instrumentlaridan foydalanish banklar resurs bazasini diversifikatsiya qilish va uni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. Muallif tomonidan banklar resurs bazasini diversifikatsiya qilish hamda kapital bozori instrumentlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, resurs bazasi, kapital bozori, korporativ obligatsiyalar, aksiyadorlik kapitali, sekyuritizatsiya, investorlar bazasi.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические основы, современное состояние и направления расширения ресурсной базы коммерческих банков посредством инструментов рынка капитала — корпоративных облигаций, акционерного капитала и механизмов секьюритизации. Результаты исследования показывают, что использование инструментов рынка капитала создаёт дополнительные возможности для диверсификации и развития ресурсной базы банков. Автором разработаны конкретные предложения по диверсификации ресурсной базы банков и повышению эффективности использования инструментов рынка капитала.

Ключевые слова: коммерческий банк, ресурсная база, рынок капитала, корпоративные облигации, акционерный капитал, секьюритизация, база инвесторов.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations, current state, and development directions for expanding the resource base of commercial banks through capital market instruments — corporate bonds, equity capital, and securitization mechanisms. The findings show that the use of capital market instruments creates additional opportunities to diversify and develop banks' resource base. The author proposes specific measures to diversify banks' resource base and improve the effectiveness of capital market instruments.

Keywords: commercial bank, resource base, capital market, corporate bonds, equity capital, securitization, investor base.

KIRISH

Tijorat banklarining barqaror faoliyati va real sektorni uzoq muddatli moliyalashtirish salohiyati, avvalo, ularning resurs bazasi hajmi, tarkibi va sifatiga bog'liq. So'nggi o'n yillikda O'zbekiston bank tizimida jadal o'sish kuzatilib, aktivlar, kredit portfeli va depozitlar bazasi barqaror sur'atlarda kengaymoqda. Shu bilan birga, resurslarning asosiy qismi qisqa va o'rta muddatli depozitlar hamda xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan kredit liniyalari hisobidan shakllanmoqda. Bu holat banklarning uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Kapital bozori instrumentlari — korporativ obligatsiyalar, aksiyadorlik kapitali, sekyuritizatsiya va sindikatsiyalangan kreditlar orqali resurs jalb qilish mazkur yo'nalishda muhim imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy bozorlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasi xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, R. Levine tadqiqotlarida moliyaviy vositachilik va bozorlarning rivojlanish darajasi bilan resurslarni taqsimlash samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik asoslab berilgan [1]. A. Lo tadqiqotlarida moliyaviy tizimlarning moslashuvchanligi hamda bozor sikllariga ta'siri o'rganilgan [2].

Mahalliy iqtisodchilardan Sh. Karimov O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish strategiyalarini tahlil qilib, banklarning kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurligini



ta'kidlaydi. D. Qodirov tijorat banklarining fond bozoriga chiqish imkoniyatlari va cheklovlarini o'rgangan bo'lsa, S. Kamilova tijorat banklarining aksiyadorlik kapitali va investitsiya siyosati masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan.

Shuningdek, milliy korporativ obligatsiyalar bozorining joriy holati va istiqbollari bag'ishlangan tadqiqotlarda qarz kapitali orqali moliyalashtirish darajasi mamlakatdagi qarz instrumentlari bozorining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liqligi ko'rsatilgan. Mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida tijorat banklari resurs bazasini kapital bozori orqali kengaytirish masalasi kompleks tadqiqotni talab qiluvchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, statistik taqqoslash, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Toshkent fond birjasi hamda yetakchi tijorat banklarining ochiq statistik va moliyaviy hisobotlaridan foydalanilib, ular 2020–2026-yillar kesimida tahlil qilindi.

Mazkur matnni tahrirlash jarayonida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2026-yilga kelib O'zbekiston bank tizimida 35 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda. Ularning aktivlari asosan kreditlar, naqd pul, boshqa banklardagi depozitlar hamda qimmatli qog'ozlardan tashkil topgan. Tijorat banklari resurs bazasining shakllanish dinamikasi va uning kapital bozori instrumentlari hisobiga kengayishini yaxlit baholash uchun, avvalo, bank tizimining so'nggi yillardagi asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini statistik jihatdan tahlil qilish zarur. Mazkur yondashuv resurs bazasi tarkibidagi o'zgarishlarni, xususan, an'anaviy depozit va kredit manbalari bilan kapital bozori orqali jalb qilingan mablag'lar o'rtasidagi nisbatning yillar kesimidagi dinamikasini aniqlash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd so'm) [3]

Sana	Aktivlar	Kreditlar	Depozitlar	Kapital
01.01.2020-y.	272 726,9	211 580,5	91 009,0	51 030,7
01.01.2021-y.	366 121,1	276 974,8	114 746,9	58 351,3
01.01.2022-y.	444 922,5	326 385,6	156 189,8	70 917,6
01.01.2023-y.	556 746,3	390 048,9	216 737,5	79 565,4
01.01.2024-y.	652 157,1	471 405,5	241 686,6	97 079,2
01.01.2025-y.	769 330,4	533 121,2	308 692,3	114 792,4
01.01.2026-y.	924 763,1	604 002,2	417 258,2	135 339,1

Yuqoridagi jadval O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tizimida 2020–2026-yillar davomida aktivlar, kreditlar, depozitlar va kapital hajmining o'zgarishini ko'rsatadi. Mazkur davrda barcha ko'rsatkichlar barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Eng sezilarli o'sish depozitlar hajmida kuzatilib, u qariyb besh baravarga oshgan, kreditlar esa nisbatan sekinroq sur'atlarda o'sgan. Davr yakunida aktivlar tarkibida depozitlarning ulushi ortgan, kapitalning ulushi esa kamaygan.

2020-yil 1-yanvar holatiga banklarning umumiy aktivlari 272 726,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvargacha kelib 924,7 trln so'mga yetgan. Bu boshlang'ich ko'rsatkichga nisbatan taxminan 3,4 baravar ko'pdir. Eng yuqori yillik o'sish so'nggi ikki yilda kuzatilib, aktivlar mos ravishda 18% va 20% ga oshgan.

Kreditlar hajmi ham izchil o'sib, 2020-yildagi 211 580,5 mlrd so'mdan 2026-yilda 604 trln so'mga yetgan. 2024-yildan keyin kreditlarning o'sish sur'ati birmuncha sekinlashib, yillik taxminan 13% darajasida shakllangan. Avvalgi davrda esa ushbu ko'rsatkich 20% dan yuqori bo'lgan.

Depozitlar barcha ko'rsatkichlar orasida eng yuqori o'sish sur'atini qayd etgan. 2020-yildagi 91 trln so'mdan 2026-yilda 417 trln so'mga yetib, qariyb 5 baravar oshgan. Xususan, 2024–2025-yillarda depozitlar 27,7% ga, 2025–2026-yillarda esa 35,2% ga ko'paygan. Bu jadvaldagi eng yuqori yillik o'sish ko'rsatkichidir. Kapital hajmi ham o'sish tendensiyasini saqlab, 2020-yildagi 51 trln so'mdan 2026-yilda 135 trln so'mga yetgan, biroq uning o'sish sur'ati boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan pastroq bo'lgan.

Kapitalning aktivlardagi ulushi 2020-yildagi 18,7% dan 2026-yilda 14,6% gacha kamaygan bo'lsa, depozitlarning ulushi 33,4% dan 45,1% gacha oshgan. Shu bilan birga, kreditlarning depozitlarga nisbati



232,5% dan 144,8% gacha pasaygan. Bu holat banklar resurs bazasini shakllantirishda depozitlarning ahamiyati ortganini ko'rsatadi. Fikrimizcha, 2020–2026-yillar davomida bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sgan bo'lsa-da, o'sish sur'atlari turlicha bo'lgan: depozitlar eng yuqori, kapital esa nisbatan past o'sish sur'atini namoyon etgan.

So'nggi uch yil davomida obligatsiyalar ulushi sekin, biroq izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu holat kapital bozori instrumentlarining banklar resurs bazasidagi ahamiyati bosqichma-bosqich ortib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiya banklarning kapital bozori instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va resurs bazasini diversifikatsiya qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Yetakchi milliy banklardan biri — "O'zsanoatqurilishbank" ATB tajribasi shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillar davomida xalqaro kapital bozorida bir necha bosqichda jami taxminan 1,1 mlrd AQSh dollari miqdorida yevrobondlar va milliy valyutadagi obligatsiyalar muvaffaqiyatli joylashtirilgan. So'mdagi obligatsiyalarga investorlar talabi ham yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Mazkur tajriba tegishli shaffoflik va kredit reytingi mavjud bo'lgan taqdirda mahalliy banklarning xalqaro va mahalliy investorlar ishonchini qozonish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi.

Institutsional jihatdan so'nggi davrda kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kapital bozorida maxsus tartibga solish rejimi joriy etilgan, yashil obligatsiyalar chiqarish infratuzilmasi shakllantirilgan, tijorat banklarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va Bazel III talablariga o'tkazish hamda Moliyaviy barqarorlik kengashini tashkil etish vazifalari belgilangan. 2030-yilgacha mahalliy fond bozoriga qo'shimcha ravishda kamida 1 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya, shu jumladan, 5 trillion so'mlik korporativ obligatsiyalar chiqarish rejalashtirilgan. Bu tijorat banklari uchun resurs bazasini kengaytirishning qo'shimcha imkoniyatlarini yaratadi (2-jadval) [4].

2-jadval
Tijorat banklari jamlanma balansi [3]

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2021 y.		01.01.2022 y.		01.01.2023 y.		01.01.2024 y.		01.01.2025 y.		01.01.2026 y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
Aktivlar												
Kredit qo'yilmalari	270 212,8	73,8	316 382,4	71,1	378 909,2	68,1	457 847,1	70,2	514 692,6	66,9	587 038,9	63,5
Asosiy vositalar	8 314,2	2,3	11 031,9	2,5	14 242,9	2,6	19 874,9	3,0	24 955,8	3,2	29 894,0	3,2
Jami aktivlar	278 527,0	100,0	444 922,5	100,0	556 746,3	100,0	652 157,1	100,0	769 330,4	100,0	924 763,1	100,0
Majburiyatlar												
Depozitlar	114 746,9	37,3	156 189,8	41,8	216 737,5	45,4	241 686,6	43,5	308 692,3	47,2	417 258,2	52,9
Olingan kreditlar va lizing	151 704,0	49,3	173 750,3	46,5	186 614,5	39,1	224 350,7	40,4	234 667,5	35,9	247 690,5	31,4
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	9 523,0	3,1	10 612,7	2,8	10 915,2	2,3	13 160,6	2,4	29 094,9	4,4	37 245,5	4,7
Jami majburiyatlar	275 973,9	100,0	374 004,9	100,0	477 180,8	100,0	555 077,9	100,0	654 538,0	100,0	789 424,0	100,0
Kapital												
Ustav kapitali	44 655,8	76,5	54 760,0	77,2	59 856,7	75,2	68 643,0	70,7	83 665,7	72,9	94 403,6	69,8
Qo'shimcha kapital	434,6	0,7	675,5	1,0	997,5	1,3	1 338,8	1,4	1 463,7	1,3	1 463,7	1,1
Zaxira kapitali	5 205,9	8,9	8 452,2	11,9	7 320,6	9,2	11 152,6	11,5	13 067,4	11,4	14 842,8	11,0
Taqsimlanmagan foyda	8 055,0	13,8	7 029,9	9,9	11 390,6	14,3	15 944,8	16,4	16 595,7	14,5	24 628,9	18,2
Jami kapital	58 351,3	100,0	70 917,6	100,0	79 565,4	100,0	97 079,2	100,0	114 792,4	100,0	135 339,1	100,0



Yuqoridagi jadval umumiy ko'rsatkichlarni tarkibiy qismlarga ajratib, 2021–2026-yillar davomida aktivlar, majburiyatlar va kapitalning tarkibiy elementlari qanday o'zgarganini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda barcha tarkibiy qismlar mutlaq qiymatda o'sgan, biroq ularning umumiy hajmdagi nisbiy ulushlari sezilarli darajada o'zgargan. Aktivlar tarkibida kredit qo'yilmalarining ulushi kamaygan, majburiyatlarda depozitlarning ulushi ustunlik qilgan, kapital tarkibida esa ustav kapitalining dominant o'rnini birmuncha pasayib, taqsimlanmagan foydaning ulushi oshgan.

2021-yil 1-yanvar holatiga jami aktivlar 278 527,0 mlrd so'mni tashkil etib, uning 73,8 foizi kredit qo'yilmalariga, 2,3 foizi esa asosiy vositalarga to'g'ri kelgan. Keyingi besh yil davomida kredit qo'yilmalarining mutlaq hajmi 587 trln so'mgacha oshgan bo'lsa-da, ularning aktivlardagi ulushi 2026-yilga kelib 63,5 foizni tashkil etgan. Bu 10,3 foiz punktga kamayishni anglatadi. Aksincha, asosiy vositalarning ulushi 2,3 foizdan 3,2 foizgacha oshgan.

Majburiyatlar tarkibida depozitlar ulushining o'sishi yaqqol namoyon bo'lgan. 2021-yildagi 37,3 foizlik ko'rsatkich 2026-yilga kelib 52,9 foizga yetgan va majburiyatlarning yarmidan ko'pini tashkil etgan. Shu bilan birga, olingan kreditlar va lizingning ulushi 49,3 foizdan 31,4 foizgacha kamaygan. Chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning ulushi nisbatan kichik bo'lib qolgan bo'lsa-da, ularning mutlaq hajmi 2024–2025-yillarda 13 trln so'mdan 29 trln so'mgacha oshgan.

Kapital tarkibida ustav kapitali barcha davr mobaynida asosiy tarkibiy qism bo'lib qolgan. Uning ulushi 2021-yildagi 76,5 foizdan 2026-yilda 69,8 foizgacha kamaygan. Shu davrda taqsimlanmagan foydaning ulushi 13,8 foizdan 18,2 foizgacha oshib, kapital tarkibidagi ikkinchi yirik va eng tez o'suvchi qismga aylangan. Zaxira kapitalining ulushi 8,9–11,0 foiz oralig'ida shakllangan, qo'shimcha kapital ulushi esa davr davomida eng kichik ko'rsatkich bo'lib qolgan.

Umuman, tahlil qilingan davrda bank tizimining moliyaviy tarkibida ichki resurslarga tayanish kuchaygan, tashqi qarz mablag'lari va an'anaviy ustav kapitaliga nisbiy tayanch esa kamaygan. Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar ulushining so'nggi ikki yildagi o'sishi bank tizimida kapital bozori instrumentlaridan foydalanish tendensiyasi kuchayayotganini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlil natijasida banklar resurs bazasini kapital bozori orqali kengaytirish bo'yicha rivojlantirish imkoniyatlari aniqlandi. Jumladan, institutsional investorlar bazasini kengaytirish, ikkilamchi bozorda obligatsiyalar likvidligini oshirish, kichik va o'rta banklarning xalqaro kredit reytingi hamda shaffoflik talablariga muvofiqligini yanada kuchaytirish, shuningdek, aholi va korporativ investorlarning kapital bozori instrumentlariga nisbatan ishonchi hamda moliyaviy savodxonligini oshirish muhim yo'nalishlar sifatida belgilandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari kapital bozori orqali tijorat banklari resurs bazasini kengaytirish O'zbekiston moliya tizimida rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan yo'nalishlardan biri ekanini ko'rsatdi. Tahlil natijasida kapital bozori instrumentlari orqali jalb qilingan mablag'lar ulushini oshirish, institutsional va xususiy investorlar bazasini kengaytirish, ikkilamchi bozor likvidligini yaxshilash hamda kichik va o'rta banklarning reyting va shaffoflik talablariga muvofiqligini kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

Ushbu yo'nalishda institutsional investorlar, xususan, pensiya va sug'urta fondlari resurslarini kapital bozoriga jalb qilish mexanizmlarini kengaytirish, qimmatli qog'ozlar ulushi bo'yicha me'yoriy chegaralarni qayta ko'rib chiqish hamda bozor faoliyatini rag'batlantiruvchi huquqiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish tavsiya etiladi. Shuningdek, banklarning milliy va xalqaro kredit reytinglarini oshirish hamda investorlar bilan aloqalar xizmatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Mazkur takliflarning kompleks amalga oshirilishi tijorat banklari resurs bazasining barqarorligi va diversifikatsiyalanish darajasini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kapital bozorining institutsional rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlash va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan kapital bozorini rivojlantirish maqsadlariga erishishga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Levine, R. (1997/2005). *Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda*. <https://web.williams.edu/Economics/macro/levine.pdf>
2. Lo, A. W. (2017). *Adaptive Markets: Financial Evolution at the Speed of Thought*. <https://www.jstor.org/stable/j.ctvc77k3n>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. <https://cbu.uz/uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda PF-254-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7932083>



5. "Toshkent" Respublika fond birjasi. Rasmiy veb-sayt. uzse.uz
6. "Toshkent" Respublika fond birjasi. Qimmatli qog'ozlar va birja savdolari bo'yicha ma'lumotlar. Birja savdolari va qimmatli qog'ozlar ma'lumotlari
7. "Toshkent" Respublika fond birjasi. Birja qoidalari va normativ hujjatlar. Birja qoidalari va normativ hujjatlar
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi bo'yicha statistik va moliyaviy ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>